

## O'ZBEK ADABIYOTI TARIXIDA SULAYMON BOQIRG'ONIYNING O'RNI

**Marjona Bozorova**

TISU o'zbek tili yo'nalishi talabasi.

**Norkulova Shaxnoza Tulkinovna**

Ilmiy rahbar.

TISU dotsenti (PhD).

*e-mail:* [norqulovashaxnoza8@gmail.com](mailto:norqulovashaxnoza8@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14307004>

**Annotatsiya.** Maqolada tasavvuf adabiyotining yirik namoyondasi Sulaymon Boqirg'oniyni hayot va ijod yo'li, Boqirg'oniyni ijodining o'rganilishi, uning din va tasavvuf, ishq va axloqdan saboq beruvchi hikmatlari bilan bir qatorda "Boqirg'on kitobi" haqida gap boradi. S.Boqirg'oniyni o'zbek adabiyoti tarixida va tasavvuf ta'limotida tutgan o'rnini xususida fikr yuritiladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Sulaymon Boqirg'oniyni, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, "Hakim ota risolasi", Shayx shoir, Qul Sulaymon, Hakim Sulaymon, Hakim ota, so'fiyona she'rlar, "Boqirg'on kitobi", Qur'oniyni va tasavvufiy g'oyalar.

## МЕСТО СУЛАЙМАНА БОКИРГАНИ В ИСТОРИИ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

**Аннотация.** В статье рассказывается о жизни и творческом пути Сулеймана Бакыргани, крупного представителя суфийской литературы, изучении творчества Бакыргани, его мудрости, дающей уроки о религии и мистике, любви и нравственности, а также о «Книге Бакыргани». Обсуждается роль С. Бакыргани в истории узбекской литературы и мистики.

**Ключевые слова и выражения:** Сулейман Бакыргани, Ахмед Ясави, Алишер Навои, "трактат Хакима Ота", Шейх-поэт, Кул Сулейман, Хахим Сулейман, Хахим Ота, суфийские стихи, "Книга Бакыргани", Коран и мистические идеи.

## THE PLACE OF SULAYMAN BOQIRGHANI IN THE HISTORY OF UZBEK LITERATURE

**Abstract.** The article talks about the life and creative path of Suleyman Bakirgani, a major representative of Sufism literature, the study of Bakirgani's work, his wisdom that teaches lessons about religion and mysticism, love and morality, as well as the "Book of Bakirgani". The role of S. Bakirgani in the history of Uzbek literature and mysticism is discussed.

**Key words and phrases:** Suleyman Bakirgani, Ahmad Yasawi, Alisher Navoi, "treatise of Hakim Ota", sheikh-poet, Kul Suleiman, Hakim Suleiman, Hakim Ota, Sufi poems, The "Book of Bakirgan", The Quran and mystical ideas.

Turkiy xalqlar orasida Hakim ota nomi bilan shuhrat qozongan Sulaymon Boqirg'oniyni Xorazmning Boqirg'on qishlog'ida dunyoga kelgan. Sulaymon Boqirg'oniyni tasavvufning yirik namoyondasi bo'lish bilan birga hassos shoir hamdir. Ahmad Yassaviy tariqatining davomchisi.

Tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumotlar yetib kelmagan. Ustozi Ahmad Yassaviydan 20 yil keyin vafot etgan degan ma'lumotlar yetib kelgan. Yassaviy maktabining eng zabardast va mashhur namoyondasi bo'lgan bu buyuk vatandoshimiz tariqatda ham, she'riyatda ham Yassaviy an'alarinining munosib izdoshi bo'lgan. U Yassaviyning uchinchi xalifasi... Boqirg'oniyni din

va tasavvuf, ishq va axloqdan saboq beruvchi hikmatlari Turkiston xalqlari orasida keng tarqalib, sevib o'qilgan. Hayoti haqidagi ma'lumotlar turli rivoyatlar bilan aralashib ketgan. Sulaymon Boqirg'oniy tarjimai holiga oid ma'lumotlar juda oz bo'lib, Alisher Navoiyning "Nasoyim-ul muhabbat", Ali Safiyning "Rashahot", Mufti Zinda Alining "Samorot ul-mashoyih" tazkiralari, shuningdek, noma'lum mualliflar tomonidan yozilgan va XIX asrda til o'zgarishlariga uchrab bizgacha yetib kelgan "Hakim ota risolasi" shayx-shoir to'g'risida bir qator ma'lumotlar beradi<sup>1</sup>.

Keltirilishicha, Sulaymon Boqirg'oniy Ahmad Yassaviyga murid (shogird) bo'lgan, pining e'tiborini qozongan, she'rlari Yassaviyning mashhur hikmatlariga har jihatdan ham mazmunan, ham badiiy uslubi bilan hamohang. Sulaymon Boqirg'oniy Yassaviydan farqli o'laroq, o'zbek she'riyatini yangi janrlar, xususan, epik she'riyat bilan to'ldirgan va kengaytirgan.

Binobarin, u she'riyatda hikoya uslubida qissachilik shaklida ham dadil qalam tebratgan. Undan ancha boy va badiiy jihatdan yetuk adabiy meros qolgan. Falsafiy fikr-mushohadalar, pand-nasihat ham shayx-shoir hikmatlarining qat-qatiga singib ketgan. Ali Safiyning "Rashahot" asarida keltirilishicha, Sulaymon Boqirg'oniy: "Turk mashoyihlarining ulug'laridan tururlar va hikmatlarekim, olar turkiy tili bila darveshlarning muomalalarida aytibdurlar, Turkistonda ma'ruf (ma'lum taniqli) va mashhurdur. Va favoidi anfoslarining (so'zlar) jumlasida bu masalkim, xalq ehtiromida va vaqt ig'tinom (g'animat hisoblash)ida oytubdurlar:

Har kim ko'rsang, Xizr bil,  
Har tun ko'rsang, Qadr bil"<sup>2</sup>.

"Samarot ul-mashoyix"ning guvohlik berishicha: "Xakim ota qaddasalloxu sirraxu botin va zohir ilmlaridan ham xabardor edilar. U kishidan shariatga oid o'ttiz ming, tariqatga oid o'ttiz ming va haqiqatga oid o'ttiz ming hikmati paydo bo'lgan".

"Hakim ota risolasi"da ham Sulaymon Boqirg'oniy haqida ko'plab keltirilgan rivoyatga ko'ra, ul zot, kichikliklarida o'z tengqurlari bilan maktabga qatnar, bolalar Qur'onni bo'yinlariga osib olsalar, u kishi boshlariga ko'tarib borar, saboq tugagach, ustozlariga yuzlarini qilib, orqalari bilan yurib ketar ekanlar. Bu hodisaga guvoh bo'lgan Xo'ja Ahmad Yassaviyning bolaga mehrlari tovlanib ketadi:

-Ey o'g'lim, bor ustozingdan ruhsat so'rab kel, agar ijozat bersa, biz senga Qur'onni o'rgataylik, - deb marhamat qiladilar.

Sulaymonning ustozlari ham ota-onasi ham bajonidil uni Xo'ja Ahmad Yassaviy qo'lga topshiradilar. Yosh Sulaymon qisqa muddatda Qur'onni yodlab, boshqa ilmlarni ham o'zlashtiradi. O'n besh yoshida ustoziga murid (shogird) tushib tasavvuf yo'lga kiradi. Sulaymon tariqatda ham tezda yuksak maqomlarga erishadi. Bir kuni unga hazrati Xizr yo'liqib, uning xatti-harakatlaridan mamnunligini izhor etadi ma'no sirlarini bayon qilishga kirish fursati yetganidan xabar beradi. Ana shu ruhiy muloqotdan keyin Sulaymon hikmat ayta boshlaydi.

Manoqiblarning guvohlik berishicha, u aytgan birinchi hikmat "tariqat sultoni", "yo'ldan ozganlarni to'g'ri yo'lga solgan", "och odamlarni safarda to'ydirgan", "oshiqlar, ojizlar, mushkul ahvolda qolganlarga rahnamolik qilgan" "mangulik suvini izlab topgan va unda ichib, abadiy hayotga erishgan" Xizr alayhissalom haqida edi.

<sup>1</sup> Ahmad Yassaviy Sulaymon Boqirg'oniy "HIKMATLAR" (Nashrga tayyorlovchi E. Ochilov) Toshkent – "O'zbekiston" – 2013. 229-b.

<sup>2</sup>Fariddin Ali Safiy. "Rashohot" (Nashrga tayyorlovchilar M.Hasaniy,B.Umurzoq). --Toshkent, 2003. 17-b.

Kim erbuki bilgusiz, orig' qulga ayg'usiz,  
Xaqbin o'zga bilgusiz, Xizru Ilyos otam bor.

Tariqat tarbiyasini nihoyasiga yetkazgach, Yassaviy oq fotiha berib, Xakim otani irshod (to'g'ri yo'l ko'rsatish) uchun Xorazmga yo'llaydi. U bu yerda Yassaviy g'oyalarini targ'ib qilib, ko'plab muridlar (shogirdlar) yetishtiradi.

Uyquni harom qilg'il uzun tunda,  
Molingni zakot bergil bu kun munda,  
Qiyomat bergay sanga yorin anda,  
O'g'il-qizing ilm o'rgansun-ber ustozg'a.

U o'z fikrlari go'zal va ta'sirchan shaklda yetkazish uchun badiiy tasvir vositalaridan ham mahorat bilan foydalandi. Masalan ruh va nasfni o'zaro bahs-munozaraga kiritib, birining afzalligi-yu, ikkinchisining tubanligini yuksak shaklda ochib beradi:

Nafsim aytur: bu besh kunlik tiriklikda  
Bu dunyoda bog'u bo'ston etoyin der.

\*\*\*

Ruhim aytur: koshki Haqdin tavfiq bo'lsa,  
Tunu- kunu tinmayin yodin aytsam,  
Qismatimdan ortuq taom emas bo'lsam,  
Bu dunyoni yig'ib-terib netoyin der.

Bu mumtoz adabiyotdagi munozara janri xususiyatlariga esga soladi. Sulaymon Boqirg'oniy ijodi, bir olganda, islom targ'ibi va tasavvuf tashviqiga bag'ishlangan. Yassaviy bilan Boqirg'oniy va umuman hikmat yozgan barcha shoirlar islom asoslari va tasavvuf g'oyalarini she'riy yo'l bilan omma ongiga singdirganlar, xalq qalbiga ta'sir qilganlar.

Chunki she'riy usul, fikrni oson va ta'sirchan yetkazish, qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Boqirg'oniy ham o'z hikmatlari orqali islom asoslarini xalqqa sodda va ta'sirchan usulda tushuntiradi:

Alloh yodi oshiqlardan xoli bo'lmas,  
Haqiqat er bu dunyog'a mayl qilmas.  
Hayron bo'lub bu dunyoni ko'zga olmas,  
Man taqi bu dunyoni qo'ygum kelur.

Bu hikmatlarning asrlar davomida xalq tilidan tushmay kelishining sababi-ular tilning jinli so'zlashuv nutqiga yaqinligida, uslubning yengil va ravonligida, timsolu tashbehlarining kundalik hayotdan olinganligida:

Kimga vafo qildi bu foni dunyo,  
Bizga, taqi sizga vafo qilg'usi yo'q.

Shayx-shoir Qul Sulaymon, Hakim Sulaymon, Hakim ota taxalluslari so'fiyona she'rlar manzumalar yaratgan. Bu hikmatlar "Boqirg'on kitobi" nomi ostida litografiya yo'li bilan Qozonda bir necha marta nashr etilgan. Uning Qozon nashri asosida tayyorlagan nusxasi 1991-yili O'zbekistonda taniqli olimlar Ibrohim Haqqul va Sayfiddin Rafiddinlar tomonidan kirish so'zi va izohlar bilan chop qilindi. Undan Sulaymon Boqirg'oniyning 27 she'ri, 7 hikmati Imomi A'zam to'g'risidagi bir she'riy rivoyati, Ismoil alayhissalom va Bibi Maryam haqidagi ikki she'riy qissasi, "Me'rojnoma"si va "Oxirzamon" muxammasi o'rin olgan.

Hikmatlari bilan insonlarni yomon yo'llardan qaytarib, fazilatlar kasb etib, shoir-kamolot yo'lidan yurishga da'vat qiladi. Shuning uchun ham Sulaymon Boqirg'oniy ilodi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda.

#### **REFERENCES**

1. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami. Toshkent: "Fan" 2001-yil.
2. Ahmad Yassaviy Sulaymon Boqirg'oniy HIKMATLAR (Nashrga tayyorlovchi Ergash Ochilov) Toshkent – "O'zbekiston" – 2013.
3. Faxriddin Ali Safiy. Rashaxot (Nashrga tayyorlovchilar M.Xasaniy, B.Umurzoq).-Toshkent, 2003
4. Sulaymon Boqirg'oniy Boqirg'on kitobi (Nashrga tayyorlovchilar: I. Haqqulov, S. Rafiddinovlar).Toshkent, 1991-yil.